Qabul qilindi: 05.11.2024 Chop etildi: 28.12.2024 UDK: 502.3/7 (575.1)

IMOM ISO TERMIZIYNING ILMIY MEROSI

Annaeva Zarifa Musurmonqulovna
Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.b.f.d (PhD)

https://orcid.org/0009-0005-8264-0267
E-mail: annayevazarifa@gmail.com

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА ИСО ТЕРМИЗИ

Аннаева Зарифа Мусурмонгуловна
Термезский государственный университет,
старший преподаватель кафедры всеобщей истории, (PhD)

THE SCIENTIFIC HERITAGE OF IMAM ISA TERMIZI

Annaeva Zarifa Musurmonqulovna
Termiz State University
Senior teacher of the Department of World History, (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Imom Iso Termiziyning ilmiy merosi va uning hadisshunoslik ilmiga qo‘shgan hissasi, tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar*: hadis, muhaddis, ilm, ma’rifat, axloq, olim, ustoz-shogird.*

Аннотация: *В данной статье на основе исторических источников анализируется научное наследие Имама Исы Тирмизи и его вклад в науку хадисоведения.*

Ключевые слова: *хадисы, мухаддисы, знание, просвещение, этика, учёный, учитель-ученик.*

Abstract: *This article analyzes the scientific legacy of Imam Isa Tirmidhi and his contribution to the science of hadith studies based on historical sources.*

Key words: *hadith, muhaddis, knowledge, enlightenment, ethics, scientist, teacher-student.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imom at-Termiziy o‘z davrining ko‘pgina mashhur muxaddislari, jumladan, Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Kutayba ibn Sa’id, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘iylon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy’, Sufyon ibn Vaqiy’lardan tahsil olgan. U o‘z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko‘pgina shogirdlarga uotozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqhul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafiy, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abu-l-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko‘rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, at-Termiziyning ustozlari va shogirdlari orasida turli mamlakat va elatlarning vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, uzoq o‘tmishda ham ilm-fanning taraqqiyot va ma’rifat urug‘larini tarqatish borasida turli o‘lkalarning vakillari yakdil bo‘lib faoliyat ko‘rsatib, samarali hamkorlik qilganlari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo‘lida haqiqiy hamjihatlik ruhi mavjud bo‘lgani hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir[1. 123].

At-Termiziy zehnining o‘tkirligi, xotirasi hamda qunvai hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko‘plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, Yarib tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) «Tazkiratu-l-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida quyidagi hikoya bor: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo‘lda ko‘p mashhur muhaddislar bilan uchrashib, muloqotda bo‘lib, olimlarning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qilgan. U olim: «Bo‘lmasa, qog‘oz-qalam ol», - degan. Aksiga olib, shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro‘parasida o‘tirib, eshitgan hadislarini go‘yo yozib olayotgandek, qo‘lini qog‘oz utsida harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislar keltirib, ularning yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada u qog‘ozga qarab, unda hech qanday yozuv ko‘rmagan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqib: «Nima, sen hali mening vaqtimni bekorga olmoqchimisan?», - deb qattiq ranjigan. At-Termiziy bo‘lsa, bamaylixotir: «Siz aytgan hadislarni yoddan aytib beraymi?», — degan-u hozirgina o‘zi olimdan eshitgan hadislarning hammasini birin-ketin aynan takrorlab bergan. At-Termiziy xotirasining bu qadar kuchliligidan boyagi olim hayratga tushib, qoyil qolgan[2. 173].

MUHOKAMA
(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

At-Termiziyning xorijiy mamlakatlarga qilgan safari uzoq yillarga cho‘zilib, avval eslatib o‘tganimizdek, bu safarlar chog‘ida ko‘pdan-ko‘p olimlar, muhaddislar bilan muloqotda bo‘ldi. Shu bilan birga, hadislarni to‘plab, kitoblar ta’lif qilishga ham kirishdi. Ayniqsa, mashhur muhaddis al-Buxoriy bilan Nishopurda birga faoliyat ko‘rsatib, ko‘plab ilmiy bahslarda ishtirok qiladi, bu haqda at-Termiziy o‘zining «Al-Ilal» kitobida yozadi. U xorijiy ellarga safarlaridan o‘z yurtiga 863-yillar atrofida qaytadi va eldosh olimlar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko‘plab shogirdlarga ustozlik qiladi. At-Termiziyning ko‘pchilik tasniflari, jumladan, mashhur asari «Al-Jomi’» ham o‘z Vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892-yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot, etib, shu joyda dafn qilingan.

At-Termiziy o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning ilmiy-ma’naviy merosida, shubhasiz, «Al-Jomi’» asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘p-lam»). «Al-Jomi’ al-kabir» («Katta to‘plam»), «Sahih at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomlari bilan ham yuritiladi.

Muallifning yirik asarlaridan yana biri «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazi-latlari»)dir. Bu asar «Ash-Shamoil Muhammadiya», «Ash-Shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam» nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (vaf. 1992) tomonidan bajarilgan o‘zbekcha tarjimasi arab va kirill alifbolarida Toshkentda bir necha bor nashr qilingan. Ashyumaning «Kitob at-tarix», «Kitob al-ilal as-sag‘iyr va-l-ilal al-kabir», «Kitob uz-zuhd» («Taqvo haqida kitob»), «Kitob al-asmo va-l-kuna» («Roviylarning ismi va laqablari haqida kitob»), «Al-Ilal fi-l-hadis» («Ha-dislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «Asmou-s-sahoba» («Payg‘ambar sahobalarining ismlari») asarlari ham islom olamida mashhurdir[3. 223].

Imom at-Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosida salmoqli o‘rin tutuvchi «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») nomli asari olti sahih hadis to‘plamlaridan biri bo‘lib, u yuqorida qayd etilganidek, «Al-Jo-mi’ al-kabir», «Sahih at-Termiziy» «Sunan at-Termiziy» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloniyning yoznshicha, at-Termiziy ushbu asarini 270/884 yilda, ya’ni qariyb atgmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

NATIJALAR (RESULTS)

«Al-Jomi’ al-kabir»ning qo‘lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida mavjud bo‘lib, jumladan, Toshkentda, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi’as-sahih» bir necha marta nashr qilingan. Ulardan 1283/1867-68 yili Mirtohda amalga oshirilgan toshbosmasini, 1292/1876-77-yili ikki jildda Qohirada, shuningdek, 1980-yilda Bayrutda nashr etilgan nusxalari va so‘nggi yillardagi qator nashrlarini ko‘rsatish kifoyadir. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo‘lib, ulardan Ibn al-Arabiy (vaf. 543/1148) nomi bilan mashhur bo‘lgan

imom Hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz'dan (qism)dan iborat asari eng muhim sharhlardan hisoblanadi. Ushbu sharh dastlab 1931-yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1866-1935) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bi-sharhi at-Termiziy» deb ataladi. To‘rt juz'dan iborat bo‘lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug‘taziy ala jomi' at-Termiziy» (undan ikki kismi nashr qilingan) deb atalgan. Bulardan tashqari, Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning «S'harh Sunan at-Termiziy», Ahmad Muhammad Shokirning «Tahqiyq va sharh Jomi' at-Termiziy» (o‘ndan ikki qismi 1937-yilda Musafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning «Ma'orif sunan» sharh «Sunan at-Termiziy» (uning birinchi qismi 1963-yilda Pokistonda nashr qilishan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyning «Sharh «Sunan» at-Termiziy» nomli forscha sharhi, shuningdek, Rashib Ahmad al-Kanuhiyning «Al-Kavkab ad-durriy ala-t-Termiziy» (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz'dan iborat «Al-Urf ash-shaziy ala jomi' at-Ter-miziy» (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat, Abu-l-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (vaf. 1138) «Hoshiya ala «Sunan» at-Termiziy» kabi sharhlarini ko‘rsatish mumkin [4. 217].

Avval eslatib o‘tganimizdek, hijriy uchinchi asr (milodiy to‘qqizinchi asr) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Mana shu davrdan boshlab Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatlarining tadvini rivojlanib, bu holat hadis ilmi taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. Mana shu paytdan e'tiboran Payg‘ambar (s.a.v.) hadisi shariflari birvarakayiga to‘planib qolmasdan, balki ular saralanib, toifalarga bo‘lina boshladi. Ular sahih (to‘g‘ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul) zaif (bo‘sh) kabi guruhlarga bo‘linib, chuqur tadqiq qilingan holda ilmiy tarzda tartibga solindi[5. 259].

XULOSA (CONCLUSION)

Imom at-Termiziy o‘z usozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni chuqur mas'uliyat va katta ixlos bilan davom ettirib, hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muxaddislardan biri darajasiga ko‘tarildi. Abu Iso at-Termiziyning shoh asari bo‘lmish «Al-Jomi' as-sahih» hadis ilmida katta ahamiyatga ega muhim manbalardan hisoblanadi. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o‘z asarini alohida-alohida boblarga bo‘lib, imkoni boricha, har bir hadis roviylarini keltirib, har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab, alohida ko‘rsatadi. Oldinroq biz mazkur asarning «As-Sunan» («Sunnatlar») nomi bilan («Sunan at-Termiziy») atalishini ham eslatib o‘tgandik [6. 121]. Bu nom bilan atalishiga sabablardan biri unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko‘p keltirilganligidir. Shu bilan birga, asarda pand-nasihat, axloq-odob, go‘zal xulq-u fazilatlar xususida ham juda ko‘p hadisi shariflar keltirilgan-ki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchratilmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak [7.163].

Foydalangan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamidov K. Olis – Yaqin yulduzlar. – Toshkent:. Sharq, 1990.
2. Moziydan taralgan ziyo. Imom al – Buxoriy. – Toshkent:. Sharq, 1998.
3. At – Termiziy. Sahihi Termiziy. – Toshkent:. Movaraunnahr., 1993.
4. Abu Iso at-Termiziy. Ash-shamoil an-nabaviya. U.Uvatov tarjimasi. -Toshkent:. Cho‘lpon, 1993
5. Imom al-Buxoriy saboqlari. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 4/2011
6. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi U. Uvatov. Uzbekistan:. Toshkent, 2018.

7. Zohidiy A. Turkistonda O‘rta asr arab – musulmon madaniyati. –T., 1990.